

## Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati

Do'stchanova Karomat Davlatyor qizi.

Urganch davlat Pedagogika instituti 1-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoq haqida tushuncha, ularning turlari, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri, ijtimoiy tarmoqlarga o'rnashib yoshlar ongini zararlashi haqida va yoshlarni ogohlikga chaqirish haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar** Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, ijtimoiy tarmoq, madaniyat, Verri Terkl, blogerlar faoliyati.

Agar noming xalq orasida hurmat bilan yod etilishini istasang, oilangning doimiy rohatini ko'zlasang, bolalaringa go'zal tarbiya ber, biror hunar egasi qilib yetishtir. Ularning yurish-turishlarini tekshirib tur. Yomon odamlardan uzoq bo'lsinlar, yaxshilar bilan suhbatdosh bo'lib, bahra olsinlar. (Nizomiddin).

Ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi va yoshlar orasida keng tarqalishi natijasida yoshlarga salbiy ta'sir berayotganini bilib olishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarga o'rnashib olib, yoshlarga har tomonlama ta'sir qilib ularning ongini zaxarlayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bilamizki, hozirgi yoshlar nafaqat yoshlar balki, yoshi katta bo'lgan insonlar ham ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri maqsadda foydalana olmaydi. Undan madaniyat jihatdan foydalana olmaganlari natijasida ko'plab xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar madaniyatiga, ma'naviyatiga hamda ruhiyatiga ta'sir etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar faqat ong jihatdan emas, balki, inson sog'ligiga ham ta'sir qiladi. Misol uchun ko'rish qobiliyatining pasayishiga, rak kasaliga uchrashi ehtimoli kuzatilishi mumkin. Hammamizga ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlarda insonlar bilan yaqindan tanishish, yangi do'stlar topish, o'zaro tanishish uchun tuzilgan hisoblanib hozirgi kunda bu yoshlarga ijtimoiy taqarmoqlarda foydalanishiga o'zgacha ta'sir qilmoqda. Ayrim kimsalar ijtimoiy tarmoqlarda biror foyda ilinjida ayrimlari esa o'z vaqtini bahuda o'tkazmoqda. Umri faqat ijtimoiy tarmoqlarda o'tib ketyapti desam adashmagan bo'laman. Shuni ham inobatga olishimiz kerakki, ijtimoiy tarmoqlar insonni doim o'ziga jalb qilgan. Ijtimoiy tarmoqlar muloqot qilish, fikr almashish, yangi ma'lumotlar olish uchun yaratilgan. Lekin ayrim kimsalar bundan o'zi uchun ahamiyatsiz videolar, filmlar, o'yinlar bilan vaqtini o'tkazmoqda xolos. Bu esa insonning o'z qadriyatlariga, an'analariga ziyon yetkazmoqda. Ijtimoiy taqarmoqlarga berilib ketish natijasida o'z oilasi buzilib ketishiga o'zi sababchi bo'lib qolmoqda. Bugunki, kunda You tube, Twitter, Facebook, Watsapp va shu kabi ko'plab tarmoqlar insoniyat foydalanayotgan eng kuchli tarmoqlar hisoblanadi. Bu tarmoqlar yoshlar ma'naviyatiga ta'sir qilib o'zlarining qabih



maqsadlari uchun yoshlardan foydalanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda turli-xil buzg'unchi kuchlar, yolg'on asossiz g'oyalar tarqatish natijasida yoshlar o'z o'tanasiga, yaqinlariga qarshi qilib qo'yimoqda. Vatanni pisad bilmaslik, o'qishdan voz kechib ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'lanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Bilamizki, fikr, so'z, erkinligi har bir insonning haqqi lekin bu degani davlat qonunlariga, umumiy tushunchalarga, madaniyatga qarshi chiqish kerak degani emas. Balkim, so'z erkinli orqali ma'naviyatimizga buzg'unchi g'oya orqali ta'sir qilishingiz mumkin. Milliy an'analarimizga va diniy qadriyatlarimizga asramog'imiz zarurligi yoshlar ongiga singdirish orqali vatanga, oilaga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalamog'imiz asosiy oldimizga qo'yigan maqsadimiz deb bilmog'imiz lozim. Ijtimoiy tarmoqlardan madaniyat bilan foydalanish yoshlarga salbiy ta'sirini har tomomlana o'rganish, oldini olish ma'naviy va axloqiy me'yorlarni saqlab qolish beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Chunki hozirgi global davrda insonni internet tarmog'idan uzib qo'yish imkonsiz hisoblanadi. Jamiyatshunos Werri Terkl (Birgalikdagi yolg'izlik) nomli kitobida: "Ijtimoiy tarmoqdagi suhbatlar insoniylikni barbod qilayotgan axmoqlikning yangi shaklidir" -deya takidlaydi. Chunki ijtimoiy tarmoqlarning insoniyat hayotiga eng katta ziyoni oilalar barbod bo'lib ketayotganidir. Bu yerda Werri Terkl aytmoqda ijtimoiy tarmoqlarda faqatgina uzoqdan ko'rishish va suhbat qilish inson bir-biriga nisbatan mehri-muhabbatning kamayib ketishi va bir-biridan uzoqlashishi to'g'risida so'z yuritmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qulayliklariga to'htalib o'tsam. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxs yoki maslakdosh topish juda oson. Yaqinlar bilan bog'lanish oson va qulay. Juda ko'p ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish mumkin. Bundan tashqari aloqa xizmatlari juda arzon va hamyonbob. Ijtimoiy tarmoqlarda biror mavzudagi axborot, yangilik, ma'lumot topish juda oson. Deylik, huquq yoki boshqa sohaga qiziqqan inson ayni shu yo'nalishdagi kanal va guruhlariga a'zo bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarning eng kerakli jihati shundan iboratki siz undan ilm olishingiz yoki biror bir kasb egallashingizga juda katta yordam beradi. Bu nafaqat ilm olish yoki ilm tarqatish, hunar o'rgatish uchun ham qo'l keladi. Hozirgi zamon talabiga qaraydigan bo'lsak ijtimoiy tarmoqlarsiz hech bir ishimiz yakuniga yetmasligi mumkin. Bilamizki, og'ir vaziyatga tushib qolgan nigironlar, yetim-yesirlar, himoyaga muhtoj qatlamlar ijtimoiy tarmoqlardan o'z imkoniyatlarini bilib olishlari va undan foydalanishlari, yordam olishlari mumkin ularga moddiy tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ularning ruhiyatini ko'tarishimiz mumkin. Habaringiz bor ijtimoiy tarmoqlarda turli hil kanallar bor. Bu kanallar ijodkorlar, jurnalistlar, blogerlar va boshqa kasb vakillariga katta bir imkoniyat yaratib berdi. Har bir kasb egasi bo'lgan insonlar o'z imkoniyati va iqtidoriga



va harakatiga qarab obunachi yig'ishi mumkin. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar juda tezkor va ma'lumotlarni tezda yig'ib olishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlar yangi voqea va hodisalar haqida bizga tezda axborot ulasha oladi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda obunachilar yig'ish orqali foyda olishingiz ham mumkin. Masalan shifokorlar, psixologlar, bloggerlar o'z kanallari orqali insonlarga yordam qo'lini bera oladi. Har tomonlama o'ylab ko'rsangiz ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy taraflari bor. Eng muhimi siz ijtimoiy tarmoqlarda qay yo'lni tanlashingiz bu sizning qarashlaringiz va idealaringiz bog'liq deb o'ylayman. Inson hayot yo'lini o'zi tanlaydi va shunga qarab harakat qiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlar bilmagan holda turli xil dinimizga to'g'ri kelmaydigan nashidalarni eshitish orqali va ularni do'stlariga ulashish orqali o'zlari bilmagan holda dinga qarshi guruxlarga ulanib qolishi natijasida o'z tomirlarini o'zi chopoyatganini kuzatishimiz mumkin. Masalan Telegramingizga siz pul yutib oldingiz uni olishingiz uchun karta raqamingizni tashlang deyishi mumkin siz bu vaqtda unga qarshi o'zingizda immunitet topa olishingiz zarur hisoblanadi. Agar siz unga karta raqamingizni bersangiz, sizni moddiy tomonlama qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin. Yana qo'shimcha qilib aytsam, turli xil pul tikish orqali o'ynaladigan o'yinlar mavjud. Siz bu o'yinlarda dastlab g'alabaga erishishingiz mumkin va bunga qiziqib ketib ko'proq pul tikasiz va yutqazasiz natijada siz hech narsasiz qolasiz. Siz bundan ham ogoh bo'lishingiz kerak hisoblanadi. Tanganing ikkita tarafi bo'lganidek ijtimoiy tarmoqlarning ham ijobiy va salbiy taraflari bor. Men yuqorida salbiy taraflarini bir nechasini sanab o'tdim. Endi ijobiy taraflari haqida so'z olib boraman. Sizning telefoningizda Telegram, Instagram, You tube kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqdasiz. Siz Telegram orqali biron-bir til o'ganish uchun uning kanaliga kirasiz. U hamyonbob va siz uchun qulay soatni belgilab sizga til o'rgatadi. Bu yerda siz ijtimoiy tarmoq orqali manfaat oldingiz. Siz kompyuter o'rganmoqchisiz va mablag' tomonlama qiynalyapsiz. Shunday vaqtda siz You tubega kirib videolarni kuzatib o'rganib olishingiz mumkun. Bu yerda ijtimoiy tarmoqlardan o'zingiz uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni izlang qayerdagi bir be'mani narsalardan vaqtingizni ayang va kelajagingizga foydali bo'ladigan va o'zingizga foyda olib keladigan narsalar bilan shug'ullaning.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Inernetdagi tahdidlardan himoya Toshkent 2013.
2. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch O'zdamnashr 2008.

